

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS****"Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
avvalgi konstitutsiyadan farqli jihatlari"***Ilmiy rahbar: Fayziyev Farxod Mirinoyevich**"Konstitutsiyaviy huquq" fani o'qituvchisi.***Mansurova Nilufar Sanjarovna***Jahon iqtisodiyoti va Diplomiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich
talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum natijalari bo'yicha qabul qilingan yangi konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy-huquqiy hayotini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi yoritilgan. Ushbu maqoladan 1992-yilgi Konstitutsiyaga nisbatan 2023 yilgi Konstitutsianing asosiy farqli jihatlari xalqchillikka asoslanganligi, inson manfaatlari ulug'langanligi, keng qamrovli ijtimoiy himoya, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va kiritilayotgan investitsiyalar tahlil qilinadi hamda ularning siyosiy-huquqiy ahamiyati haqida bir qancha ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabr kuni o'z Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu voqeа davlatchilimiz tarixida buyuk ahamiyat kasb etadi. Chunki Konstitutsiya bizning - Bosh qomusimiz! Bu mavzuni yoritishni "Konstitutsiya nima ?" degan savolga javob berish bilan boshlaymiz. Konstitutsiya asli lotincha so'z bo'lib - davlatning asosiy qonuni degan ma'noni anglatadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruв organlari tizimini ularning vakolatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. 2022-yilning may oyi xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan oy sifatida tarixga muhrlandi. Boisi, 2022-yil 17-may kuni mamlakatimiz parlamentida eng ko'p deputatlik o'rнiga ega bo'lgan ikki siyosiy partiya - Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qo'shma yig'ilish bo'lib o'tdi. Qisqa vaqt ichida ushbu xalq vakillari tomonidan ilgari surilgan tashabbus fuqarolarimiz va keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

Konstitutsiyamizni to'kis, xalqchil va yanada mukammal qilish, inson huquq va erkinliklarining kafolatini yanada mustahkamlash, inson qadrini yuksaltirish, mamlakat taraqqiyoti yo'lida kelgusi besh yilda rivojlantirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun referendum asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritilib 2023-yil 30-aprelda Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildik. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128tadan 155taga, undagi



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

normalar esa 275tadan 434taga oshdi. Bu ma'lumotlarga ko'ra Konstitutsiyamiz 65foizga yangillanganligini ayta olamiz.

Quyida keltirilganlar qomusimizga kiritilgan eng muhim o'zgartirishlar bo'lib,jamiyatimizda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.O'zbekiston-huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Konstitutsianing 1-moddasidagi "O'zbekiston-suveren demokratik respublika" jumlesi quyidagicha o'zgartirilgan:

-O'zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan, suveren, demokratik, huquqiy, jtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli-davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan ma'lum muddatga saylanishini anglatadi.

Suveren davlat-o'z hududida oliy hokimiyatga ega bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan hech qanday to'siqlarsiz munosabat o'rnatish demakdir.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'tiroflashi bilan o'z fuqarolarini munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda.

Yangi Konstitutsianing 154-moddasi bilan 1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas deb belgilandi.

"Ijtimoiyadolat prinsipining namoyon bo'lishi, mamlakatimiz xalqining munosib, farovon, erkin hayotini ta'minlashga, har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga o'z tasirini ko'rsatadi".1

Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich "Eng muhimi,bu-keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir"-degan ekanlar.

2. Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi.

15-moddaga quyidagicha qo'shimcha kiritildi:

-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsianing to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga qonunlardagina emas ,balki,konstitusiyada keltirilgan normalar asosida ham ish olib borishlarini ta'minlaydi. Sudga murojaat qilishga to'liqligicha imkon beradi.

3.Qonunda belgilangan imkoniyatlarga nisbatan belgilanmagan ammo qonuniy bo'lgan imkoniyatlar soni ortishi.

Tahrirlangan Konstitutsianing 19-moddasi-fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat'iy nazar qonun oldida tengligi haqida va bu moddaning ba'zi bandlariga kiritilgan o'zgarishlarni ko'rib o'tamiz:

-Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

-Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bu moddaning asl ma'nosi shundaki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar faqatgina qonunlar asosida emas, balki, ko'p hollarda qonunosti hujjatlar-qaror va farmonlar asosida berib kelinmoqda.

4.Vujudga kelgan muammolarning inson foydasiga hal etilishi

Tahrirlangan konstitutsiyaga asosan:

-Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar turli shakllarga ega, ularni normativ huquqiy hujjatlarda to'liq aks ettirish amalda imkonsiz.

Kiritilgan o'zgartirish shuni anglatadiki, davlat organlarining ishlarida muammolar, noaniqliklar yuzaga kelgan taqdirda, inson manfaatlari va huquq-erkinliklarini konstitutsiyada belgilanganligini inobatga olib, ish inson foydasiga hal qilinishidir.

5.Ilk bor Konstitutsiyamizda O'qituvchilarning tilga olinishi

Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida ikki banddan iborat modda qo'shildi:

-O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

-Davlat o'qituvchilarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

O'qituvchilar huquq sohasi vakili bo'lmasalarda, bosh qomusimizda tilga olingan yagona kasb egalariga aylandilar.

6.OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Avvalgi konstitutsiyada ommaviy axborot vositalariga oid bitta modda bor edi. "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliği uchun belgilangan tartibda javobgardirlar senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Yangi konstitutsiyada bu bob ikki moddadan iborat bo'ldi:


-Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

-Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Asosiy yangilik-OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik konstitusiyada ham belgilandi.

"...fuqarolarning fikr so'z va e'tiqod erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash-rivojllangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etishning muhim shartidir".2

7.Davlatni boshqarish ishlari dagi o'zgarishlar



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

-Prezidentning vakolat muddati 5yildan 7yilga uzaytirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003-yilda ham 5yildan 7yilga uzaytirilgan, 2011-yilda esa qaytib 7yildan 5yilga tushirilgan edi.

-Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Avvalgi tartibga ko'ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilar edi.

-Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirildi. 14ta hududdan 6nafardan emas, 4nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16nafardan 9nafarga qisqartirildi. Bu normaga yaqqol misol qilib, joriy yilning 27-oktabr sanasida bo'lib o'tgan parlament saylovini keltirib o'tsak bo'ladi.

-Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi.

-Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Bu jumlanı sharhlab o'tsak, "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlarini chiqargan qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmashligi odil sudlovnini ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavxum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi. Shuningdek sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi bosh qomusimizning 136-moddasida ham "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 67-moddasida ham keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi o'zgarishlardan tashqari quyidagi normalar ham Konstitutsiyamizning yangi tahririda ko'zga tashlanadi:

-O'zbekistonda o'lim jazosi bekor qilinadi. Negaki o'lim jazosi O'zbekistonda amal qilib kelinayotgan insonparvarlik prinsipiiga zid holatdir.

-Agar shaxsnинг o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishiga yo'l qo'yilmaydi.

-Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovnini amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

-Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

"Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish - Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir".3

Hozirda kiritilgan o'zgartirishlar nafaqat konstitutsiyamizda balki, jamiyat hayotida ham ko'zga tashlanmay qolmayapti. Davlatimiz ham o'z istiqboli yo'lida bir qancha yutuqlarga erishmoqda, yosh avlod uchun ko'rsatilayotgan e'tibor va kiritilayotgan investitsiyalar o'z samarasini bermoqda. Fuqarolarga berilayotgan ijtimoiy yordam ularning to'xtab qolgan joyidan rivojlanish tomon qadam qo'yishga undamoqda. "Ijtimoiy birdamlik" prinsipi har jabhada o'z kuchini ko'rsatmoqda.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi
- 2.O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrdagi konstitutsiyasi
- 3.https://constitution.uz/oz/pages/Yangi_O%E2%80%98zbekistonning_Yangi_Konstitutsiyasi
<https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>
- 5.Konstitusiyaviy huquq. Darslik. Muallif.O.T.Husanov.2024.36-bet.122-bet.194-bet.
- 6.Mirziyoyev Sh.Niyati ulug'xalqning ishi ham ulug',hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi.(kirill alifbosida).T."O'zbekiston",2019.3-tom,66-bet.
- 7.Mirziyoyev Sh.Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir.T."O'zbekiston",2018,2-tom,36-bet.
- 8."Sudlar to'g'risida"gi qonun.

